

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKUL’TET

Ijtimoiy ish yo’nalishi

09.444A-guruh talabasi

ALIOXUNOV OTABEK

KURS ISHI

**Mavzu: Ma’naviy yangilanish jarayonida oilalarning o‘rni
va roli**

Farg‘ona – 2012

REJA:

- 1. Kirish***
- 2. Oila – ma’naviy va mafkuraviy tarbiya maskani.***
- 3. Yosh oila himoyaga muhtojmi yoki paternalizmning mohiyati.***
- 4. Yosh oila salomatligi omillari.***
- 5. Yoshlarni nikoh oldi ko’rikdan o’tkazish va nikohning mustahkamligi.***
- 6. Yosh oila va uning ehtiyojlari.***
- 7. Xulosa.***

***Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor.
Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho
ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha
ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.***

Islom Karimov.

Kirish

Tarixning jiddiy o'zgarishlariyu, evrilishlar va islohotlarning turlicha ko'rinishlariga dosh bera olgan, dosh berish bilan birgalikda o'zida asriy udumlar, ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlrni inobatga olmagan bo'lsa. Jamiyatdagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot va farovonlik oilaning manfaatlarini inobatga olinmasdan ro'y bermaydi.

Mamlakat taraqqiyoti hamda madaniyat darajasini o'lchash uchun uning xotin-qizlarga, demakki, oilalarga bo'lgan munosabatini aniqlash o'rinlidir. Ya'ni, oila farovonligi – jamiyat farovonligidir. Shu bilan birga har bir shaxsning taraqqiyoti va hayotdan roziligi darajasi ham oilaning faravonligiga, uning biqiyiligiga bog'liq ekanligi ham barchamizga ayon. Lev Tolstoy yozganidek, “o'z uyida baxtli bo'lgan kishigina baxtlidir”. Shunday insonlardan iborat jamiyatda esa xotirjamlik, to'kin-sochinlik, farovonlik bo'lishi muqarrar.

Oilaning muqaddasligi uning umuman inson jamiyati, undagi o'lmas qadriyatlarning saqlanib qolishida uning ayrim alohida olingan shaxs bilan yahlit jamiyat o'rtasida o'ziga xos bog'lovchi mexanizm-ko'proq rolni o'ynashida xam yaqqol namoyon bo'ladi. Zero madaniy ma'naviy qadriyatlarni saqlab, avloddan avlodga yetkazishda shu jamiyatdagi oilalardan tashqari davlat va jamoatchilik tashkilotlari, ta'lim muassasalari , madaniyat o'choqlarining ham muayyan ro'li bor, lekin ulardan farqli konsepvatiproq hisoblanmish oila mana ko'p asrlar davomida avlodlararo muqaddas sanalib kelinayotgan qadriyatlarni asrab avaylab kelmoqda.

Shuning uchun davlat oilaning mustahkam va farovon bo'lishi, odamlarning unda tinchlik, xotirjamlikda yashashlaridan hamisha manfaatdor ekanligi sababli ham muayyan qonunlar va yuridik tizimni ushlab turadiki, ular orqali nafaqat nilohning o'zini, balki ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni ham muvofiqlashtirib beradi. O'zbekistonda har bir oilaga ko'rsatilayotgan be'nazir e'tibor, bola tug'ilishi va katta bo'lishi uchun suyunchi pullarning berilishi, muayyan turli nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o'z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma'naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir. Yosh oilaning ijtimoiy-siyosiy muhofazasi, undagi munosabatlarning muvoqlashuvi o'zbekiston respublikasi konstitusiyasining 14-bobidan o'rin olgan qator moddalarda o'z ifodasini topgan. Ushbu bobning 63-moddasida "oila jamiyatning asosiy negizi hisoblanadi va jamiyat hamda davlat himoyasi huquqiga ega" ekanligi e'tirof etilgan. Shuningdek, 1998-yil 30-aprelda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining oila Kodeksi qabul qilingan bo'lib, unda oilaviy munosabatlarning barcha qirralari, ularning yechimlari o'zining to'la aksini topgan. Kodeksda jamiyatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy yuksalishida oilaning o'rni, uning ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning madaniy-ma'rifiy, ma'naviy hamda tibbiy madaniyati yuksalishidagi roli va ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Xususan, ushbu qonun xujjatida oilaning muhim vazifasi sifatida o'zaro mehr-muhabbat, ishonch, hurmat, hamkorlik, o'zaro yordam hamda ma'suliyat hislari asosida oilaviy munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlash zarur ekanligi qayd etilgan.

Oila – ma’naviy va mafkuraviy tarbiya maskani

Erkin demokratik, fuqarolik jamiyati qurilayotgan yurtimizda barkamol avlod tarbiyasiga katta e’tibor qaratilar ekan, bu masalaning oila-nikoh munosabatlariga bog’liq jihatlari milliy tarbiyaning negizini tashkil etadi. Chunki, yetuk, barkamol, sog’lom avlod sog’lom oilaviy munosabatlar sharoitida tarbiyalanadi va jamiyat rivojiga o’z hissasini qo’shadi.

Shu bois ham O’zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Yaqin o’tgan davr ichida, aniqrog’i, mustaqillik yillarida shaxsan Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov tashabbuslari va qo’llab-quvvatlovlari bilan oila, xotin-qizlar, keksalar va bolalar ijtimoiy muhofazasini ta’minlashga qaratilgan 100 ga yaqin turli qonun va normativ hujjatlar, Prezident farmonlari va farmoyishlar e’lon qilindi va hayotga joriy etildi. Ayniqsa, yillarga maqom berish munosabati bilan qabul qilinayotgan har yilgi davlat dasturlari bu toifa aholi manfaatlarini amalda himoya qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yaqqol dalilidir. 2008-yilning “Yoshlar yili” deb e’lon qilinganligi, aynan shu yilda muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmonning imzolanganligi yurtimizda yohlarga va xususan yosh oilalarga, ularning farovonligiga qaratilgan e’tiborning yorqin dalilidir. 2010-yilning yurtboshimiz tomonidan “Barkamol avlod yili” deb atalgani esa bu boradagi hayrli ishlarning bardavomligini ko’rsatib turibdi.

Sharq xalqlari, xususan, o’zbekistonliklar uchun oila – muqaddas dargoh. Oilalarimizga hos bo’lgan udumlar, odatlar, ayniqsa, kattaning hurmat qilinishi, kichikning izzati, onalar oyog’i ostidagi jannat, otaning so’zsiz obro’-martabasi aslida katta tomonidan yoki oilaning to’ng’ichi bo’lgan farzand tomonidan kichiklarning yoki ayolninh qaysidir manfaatlarining cheklanishi emas, balki, aksincha, ularni ayash, g’amho’rlik qilish hamda oliyjanoblikning ramzi sifatida qaralib kelgan va shunday bo’lishi kerak. Bu o’zbek oilasining mustahkam bo’lishi va

undagi o'zaro munosabatlarning bardavomligi oqsoqollarga ehtirom, keksalarning qadrlanishi va otalarning martabasi mezonidir. Shuning uchun ham halqimizda "Ota rozi –Xudo rozi" degan naql mavjud. Ota-onalar esa ezgu niyat sifatida o'z farzandlarini baxtli-saodatli qilish, yosh oilaning mustahkam bo'lishi uchun kurashadilar. Yosh oilani oilaviy hayotning dastlabki bosqichlarida suyash, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash azaliy udumlarimizdir. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. "Bundan kelib chiqadigan huloosa shuki, oilani mustahkamlash, uning qadriyatlarini asrash, sog'lom munosabatlar muhitini yaratish orqali barkamol avlod tarbiyasini ta'minlash har birimizning insoniy burchimizdir. Er-xotinlik munosabatlarini muvofiqlashtirish, farzandda ko'rish va uni tarbiyalash, ro'zg'or yuritish, hovli-joyni saronjom-sarishtalikda ushlab, oila byujetini yuritish kabilarda yosh oilaga beriladigan to'g'ri ko'mak xalqimiz, mahalla-kuy va kattalar oilasining asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Nikohni davlat yo'li bilan qayd etish esa, oila manfaatlarini davlat, jamiyat manfaatlari bilan mustahkam bog'laydi. Oila rasmiy tus oladi va bu erkakning ayol, ayolning er oldidagi, har ikkovining farzandlari, farzandlarning ota-onalari oldidagi huquqlari, ma'suliyati va burchlarini belgilab beradi. Bularning barchasining asosida, avvalo, o'zaro mehr-oqibat, odob, tarbiya kabi qadriyatlar yotadiki, ular o'z navbatida oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakillantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash – milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda, oilaning el-yurt tayanchi bo'lishdek muqaddas vazifasini ado etishini ta'minlaydi. Shu ma'noda yurtimizdagi oilalar endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Ayni shu fikr davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Shunday qilib, har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir alohida shaxs va yahlit xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi, turmush farovonligini ta'minlovchi ilg'or g'oyalar bo'ladiki, ularning har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi. Shu ma'noda milliy g'oya ana shunday sog'lom dunyoqarashlarni, teran fikrlashni ta'minlovchi g'oyadirki, uning mohiyatini ilk yoshlikdan oila muhitida, oilaviy o'zaro munosabatlar, tizimida, ota va onaning avtoriteti, bilimdonligi, tarbiylovchi shaxs sifatidagi ta'sirida bolalar ongiga singdirish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki oila – asrlar mobaynida xalq an'analari, milliy rasm-rusumlar va odatlarni saqlab kelayotgan noyob makondir. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov oila va undagi an'analarga, milliy qadriyatlarimizga juda katta e'tibor berib, oilaning mustahkam bo'lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi eng avvalo milliy g'oyani bolalar ongi va shuuriga singdirishda katta rol o'ynashini ta'kidlab, shu asnoda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasi deb ta'riflaydi: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prikk bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman".

Mustaqillik yillarida oila institutiga e'tibor benihoya kuchaydi, yillarga maqom berilayotganda oilani mustaxkamlash, nikohni milliy qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanib, muvaffaqiyatli amalgam oshirilmoqda, bu – mafkuraviy tarbiyaning ilk o'chog'ini barqarorlashtirishga qaratilgan samarali ishlardandir.

Oila mustaxkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustaxkamligi va ma'naviy yetukligining garovidir. Sohibqiron bobomiz Amir emur ham o'g'il uylantirishda kelin tanlashni, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati – sog'lom fikrli, bilimli, ahloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonni tikkan insonlar

qo'lida. Bunday insonlar ilk bor oilada tarbiyalanadilar. Oila, oila a'zolarining ayniqsa ota-onaning ahloqiy-ma'naviy yetukligi va ma'rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillardan biri hisoblanadi. Oila ma'naviyati, oilaviy ma'naviyatning va tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarga ota-onalik, qon-qarindoshlik hislatlarini uzatib, shaxsning umumiy va hissiy rivojlanishinigina ta'minlab qolmay, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va ahloqiy kamolotini ham o'stiradi. Shu sababki oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko'rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onaning kasb-hunari, oila azolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Yosh oila ham o'ziga hos bir olam, jamiyatning o'ziga hos kichik uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'ziga hos xususiyatlarni namoyon qiladi. Har bir oilaning turmush tarzi darajasi er-xotin, ayniqsa, ayolning oilaviy turmush, uning mohiyati, undagi ma'naviy muhit haqidagi tasavvurlar qay darajada shakllanganligiga bevosita bog'liq. Bunday bilim va tasvvurilarga yoshlar avvalom bor ota-onasidan olgan bilimlarga tayangan holda ega bo'ladilar.

Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlar, ota-onalarning ahloqiy-ma'naviy qiyofalari, siyosiy va madaniy saviyalari, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilaning baxtli yashashiga, oila a'zolarining hayotiga o'ziga xos xuzur bahshida etishda eng asosiy omillar, deb hisoblanadi.

Yosh oila himoyaga muhtojmi yoki paternalizmning mohiyati.

Shunisi xarakterliki, fuqarolar o'rtasida ro'y beradigan juda ko'plab munosabatlarga, masalan, nikohga kirish uchun kim-kimni tanlashi, yoqtirib oila qurishi yoki sovchilar orqali topishish, yaqin do'st tanlash, bordi-keldi qilish, yoki odamlar o'rtasida ro'y beradigan oldi-sotdi, tadbirkorlik, mehnat munosabatlarga chetdan deyarli hech kim ataylab aralashmaydi, chunki ular odamning shaxsiy ishi deb qaraladi. Oila va nikoh munosabatlarining yana ayrim jihatlariga ham hech kim aralashmaydi, lekin oilaviy munosabatlarning mustahkamligidan yahlit jamiyat, farzandlar, jamiyatning ma'naviy xolati bog'liq bo'lgani uchun oilaning u yoki bu tashvishiga, muammolariga, ayniqsa, onalik va bolalikni muhofaza qilish kabi ishlarga jamoatchilik davlat nomidan aralashadi, uni muhofaza qiladi.

Bu kabi ishlarnig ko'лами ayniqsa, muhtaram Prezidentimiz tomonidan "Yoshlar yili" deb atalgan 2008-yilda yanada kengaydi. Chunki davlat dasturiga kiritilgan har bir bandning mazmuniga e'tibor bersak, unda oila va uning a'zolarining farovon yashashlariga, yosh oila manfaatlarini himoya qilishga bevosita aloqador bo'lgan vazifalar o'rin olgan. Umuman olganda davlatimizning yosh oilalarni moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash uchun "Yoshlar yili"da ajratgan sarmoyalar hajmining kattaligi jamiyatning oilani naqadar qadrlashi, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha ezgu ishlarning bardavomligini bildiradi.

Yoshlarni tarbiyalash, ularning taqdiriga jonsaraklik bilan qarash orqali ota-onalar zurriyodlarini qobil va aqlli, imon-e'tiqodli sog'-salomat voyaga yetishini ta'minlashlarga intiladi. Chunki, oila – nafaqat er va xotinni, ularning maqomlaridan kelib chiqib tarbiyalaydi, balki yosh avlodni ham oilasi, ota-onasiga munosib insonlar bo'lib yetishishlari, jamiyatga foydasi tegishi uchun qayg'uradi. O'zbek oilasida avlodlardan meros bo'lib qolgan tarbiya mezonlari va a'nanalari mavjudki, ularning hayotiyligi va bardavomligi bois jamiyatda qadr topgan barchasida yosh avlod tarbiyasi masalasi yetakchi hisoblangan udumlar va urf-odatlar hamon saqlanmoqda.

Insoniy munosabatlarda gumanizm tamoyillari ustuvor bo'lgan yurtimizda yosh oilaning mustaxkam va baxtli bo'lishi yahshi ma'nodagi paternalizm qaror topib kelmoqda.

Paternalizm (lotincha. *Pater* – ota, *paternus* – otalarcha,) – kishilar ongiga “otalarcha g'amxo'rlik” va “ijtimoiy sheriklik” g'oyasini singdirishga qaratilgan qarash va faoliyat majmui. Oila muhitidagi paternalizm – otaning yoki oila boshlig'i sanalgan avtoritetli shaxsning obro'-e'tiborliligi, farzandlar tarbiyasi va oila farovonligidagi o'z o'rni va ma'suliyatini anglashi, buning oila a'zolari tomonidan ongli e'tirof etilishidir. Bundan tashqari, ushbu tushuncha oiladagi keksalar, qariyalar, yoshlar yordamga muhtojlar yoki iqtidorlilarga hamisha ko'maklashish, ular uchun yetarli hayot sharoitini ham nazarda tutadi. Paternalizm g'oyasi o'zida insonparvarlik, hamkorlik g'oyalarini ifodalab, xalqning umumiy qiziqish va intilishlarini aks ettirgani uchun ko'p hollarda jamiyatni birlashtirib, uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan omil hisoblanadi, bu tom ma'noda mohiyatan o'zbek oilalarida o'z ifodasini saqlab qolgan. Bu qadriyat “oilaviy burch”, “hamjihatlik ruhi”, “fidoiylik”, “vatanparvarlik”, “oilaviy qadriyatlarga sadoqat”, “kattalarga hurmat”, “kichikka g'amxo'rlik” kabi tushunchalarga asoslanadi. Bunday tushuncha va g'oyalar odatda kattalar – ota-onalar oilasidan yoshlar oilasiga o'tib, uning mavjud an'ana va urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biriga aylanadi. Lekin psixologik nuqtai nazardan tahlil etilganda, barcha davrlar va zamonlarda ham yosh oila kategoriyasi o'ziga xos tarzda o'rganilgan va u nimasi bilandir albatta kattalar oilasidan farq qilgan. Zero, har bir alohida olingan ijtimoiy-tarixiy davr o'zining rivojlanish xususiyatlariga ega. Va bu holat albatta, uning dastlabki kichik bo'g'ini bo'lmish oilada o'z aksini topadi.

Umuman, oila-nikoh munosabatlarini muvofiqlashtirish, oila institutini tom ma'noda fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini sifatida qadrlash psixologiyasini aholi ongi, birinchi navbatda, yoshlar ongiga singdirishda quyidagi tamoyillarga qat'iy amal qilish lozim:

a) jamiyatda oilaviy turmush tarzining afzalligi to'g'risida ijtimoiy fikrni barqarorlashtirish va uning salohiyatini oshirish;

b) ijtimoiy-foydali mehnat turi bilan shug'ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo'lgan to'liq oila modelini, ya'ni, ota-ona va ular tarbiyalaydigan bir nechta sog'lom va aqlli farzandlar muhitini keng targ'ib etish;

v) oilada sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda ota-onalik ma'suliyatining ustuvorligini ta'minlash;

g) oilaviy shajaralarni tiklash, uning nodir va milliy qadriyat darajasida e'zozlanadigan an'analarini jamiyat madaniyatining ajralmas bo'lagi sifatida idrok etish, oilaning milliy an'analar, urf-odatlarini asrlar davomida saqlovchi maskan sifatidagi mavqeini targ'ib etish;

d) yosh oilaning iste'molchilikdan ijtimoiy faol shaxslar ittifoqi tarzidagi maqomga yo'naltirish, yosh oilaning xo'jalik-iqtisodiy va tarbiyalavchi vazifalarini ustuvor bilish;

e) jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda oilaning davlat bilan ijtimoiy hamkorligini mustaxkamlash;

j) oilaning o'z funksiyalarini o'zi bajarishiga yo'nalgan modelini qo'llab quvvatlash.

O'zbekistonda yildan yilga nikohga kirish istagini bildirayotgan yoshlar hisobiga yosh oilalar miqdori ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga e'tibor bersak, mustaqillik yillarida aholining tabiiy o'sish sur'atlari va tug'ilish koeffisientlari kamayib ketayotganligiga qaramay, nikohga kirish koeffisienti ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'tgan 2010- yilning o'zida yurtimizdagi FXDYo idoralari tomonidan qayd etilgan nikoh, oldingi yillarga nisbatan ancha ortiqdir.

Yosh oila salomatligining omillari

Yosh oilaning mustaxkamligi, undagi ma'naviy muhitning barqarorligi yoshlarning salomatligiga, sog'lom turmush tarzi malakalariga ega ekanligiga ham bog'liq. Bunda ota-onaning, yaqin qarindosh-urug'larning umuman sog'lom turmush tarzi saqidagi tasavvurlari qanchalik aniq va ularning kundalik turmushda salomatlikni asrash ko'nikmalariga ega ekanliklari katta ahamiyat kasb etadi.

Gap eng katta boyligimiz – salomatlik haqida borar ekan, qulog'imizga tez-tez chalinayotgan “sog'lom turmush tarzi” tushunchasining o'zi hususida olimlar fikrlarini tahlil etish lozim. Olimlar hamda mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, sog'lom turmush tarzining beshta asosiy sharti bo'lib, bular eng avvalo to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olishni to'g'ri tashkillashtirish hamda gigienik ko'nikmalarga amal qilishdir. Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) ma'lumotlariga ko'ra, aholining salomatligi darajasi o'ta muhim ko'rsatgich bo'lib, u 15-25% ga u yoki bu mamlakatdagi sog'liqni saqlash tizimining faoliyatiga, 15-25% - tashqi bizni o'rab turgan muhitga va 50% - sog'lom turmush tarziga ega ekan.

Sog'lom turmush tarziga amal qilgan insonning salomatligi shubhasiz o'z qo'lida bo'ladi. Lekin ko'pincha bu shartlarga amal qilish yoshlarga erish tuyuladi. Hozirgi kunda ko'pchilik o'rtasida uchrayotgan kasalliklar va bevaqt o'limning asosiy sabablaridan biri oila a'zolarining sog'lom bo'lish uchun o'zlari harakat qilmayotganliklari, hali ham biron bir mo'jizaviy hayot baxsh etuvchi dori yoki shifokor bo'lishga ishonib yashayotganliklaridadir. Albatta, zamonaviy tibbiyot fani O'zbekistonda ham rivojlanib ketdi, tibbiyot hodimlari orasida o'z kasbining ustasi bo'lgan oliyjanob insonlar ham ko'p. Lekin agar inson o'z turmush tarzini ongli tashkil etib, kasal bo'lib qolganda ham unga qarshi shifokor bilan tengma-teng ongli ravishda kurashmasa, dardni yengish mushkul bo'lishini bugun ko'pchilik yahshi biladi.

Lekin yoshlar o'rtasida shu oddiy haqiqatni bilmaganlar ham ko'p. Salomatlikni o'z vaqtida o'z uyimiz, o'zimiz o'rganib qolgan muhitda saqlay olmaganligimizning , farzandlarimizni ilk yoshligidan sog'lom turmush tarzi

ko'nikmalariga o'rgatmaganligimizni sabablari ham bor. Buning obektiv sabablaridan biri sobiq sovet davrida tibbiy xizmatning bepulligi, tibbiyot xodimlari malakasiga nisbatan talabchanlikning past bo'lganligidir. Bu siyosat eski tuzumning boshlang'ich davrlarida aholi o'rtasida uchragan ko'pgina kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilgan bo'lsada, shu bilan birga, bunday siyosat kishilarda o'z sog'liqlariga befarqlik, baqimandalik kayfiyatini ham shakllantirdi. Yana bitta sabablaridan biri uzoq yillar mobaynida kasallikni sababi bilan emas, uning oqibati bilan kurashib kelindi. Natijada kasalxonalar qurish, ularda koykalar soni oshirishga ko'proq e'tibor berilib, targ'ibot sohasiga ikkinchi darajali sifatida qaraldi. Oqibatda aholi orasida tibbiy madaniyatning pastligi tufayli kasallanishning ko'payib borishi davom etdi. Bu o'z-o'zidan ma'lumki, har bir oilaning byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuni alohida ma'suliyat bilan ta'kidlash joizki, davlatimiz asosini tashkil etgan yosh oilalar ravnaqi kelajagimiz poydevorini sog'lomlashtirish uchun targ'ibotni eng avvalo oiladan, qolaversa, barchamiz uchun "vatan ichra vatan bo'lgan" mahalladan boshlash kerak. Chunki, sog'lom turmushi tarzini oilada to'g'ri yo'lga qo'ysak, shu oila azosi salomatlik eng birinchi darajali ekanligini tushunib yetadi.

Bir oila tushunib yetgan narsani shu oilaning boshqa yaqinlari – qarindosh-urug'lar, keyinchalik yoru birodarlar, nihoyat qo'ni-qo'shnilar tushunib yetadi.

Salomatlik – bu nafaqat sog'-salomat yurish degani, balki uzoq umr ko'rish garovi hamdir. Tug'ilish, o'sib ulg'ayish, voyaga yetib shaxsiy va umuminsoniy manfaatlar yo'lida ko'rsatish, qarish-qartayish va o'lim – bular inson hayot yo'lining qonuniy bekatlaridir. Bu hayot uchun kurash – salomatlik uchun kurash ekanligini anglashni taqazo etadi.

Demak, *sog'lom turmush tarzi bu* – har bir insonnong ma'naviy, ruhiy va jismoniy xususiyatlarga ega bo'lishga harakat qilishidir. Agar inson o'z hayotini faol harakatlanish rejimiga sola olsa, kun tartibini ongli belgilay olsa, ovqatlanish, mehnat qilish yoki dam oilsh tartibini to'g'ri tashkil eta olsa, gigiena qoidalariga rioya qilgan holda zararli odatlardan o'zini tiya olsa, atrof-muhitga ehtiyotlik va

sarishtalik bilan qarab, oilada va yonidagi qo'ni-qo'shni, yaqin qarindoshlar bilan tinch-totuv tashashga imkon beruvchi muomala madaniyatiga ega bo'lsa va sog'lom farzandning tug'ilishiga eng avvalo o'zi mas'ul ekanligini tushunsa, unda sog'lom turmush tarzi haqida tasavvurlar mavjud, deyish mumkin.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi olimlari 2000-yillarning boshida O'zbekiston hududidagi qishloq oilalari a'zolarining sog'lom turmush tarzi borasidagi savodxonligini maxsus tadqiqod doirasida o'rgandi. Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 600 dan ziyod xotin-qizlar bilan suhbat va so'rovlar o'tkazildi. So'raluvchilarning aksariyati tug'ish yoshidagi ayollar bo'lib, ularning fikrlarini umumlashtirib tahlil qilinganda, oilali ayollarning 21%i va erkaklarning 9,9% surunkali kasalliklarga chalingan ekan. So'raluvchilardan 53,3%i faqat kasal bo'lgandagina vrachga murojaat qiladi, qolganlari vaqti-vaqti bilan murojaat qiluvchilardir. Demak, ko'pchilik betob bo'lib qolgandagina vrachga murojaat qiladi, hattoki, kasal o'tib ketgandan keyin vaqt topadiganlar ham kam emas.

Shu bois ham, sog'lom turmush tarzi kategoriyasi ko'proq ijtimoiy kategoriya bo'lgani Markaz olimlari so'raluvchilarning tibbiy-gigienik ma'lumoti darajasini o'rgandilar. Masalan, "O'z farzandlaringiz bilan tibbiy-gigienik mavzuda suhbatlashib turasizmi?" degan savolga barcha so'raluvchilarning 62,6% ijobiy javob bergan bo'lsalar, umuman gaplashmaydiganlar 19,8%ni tashkil etdi. Bu o'ylantiradigan holat, albatta. Lekin tibbiy bilimning zaruratini anglaydiganlar qishloq aholisi o'rtasida ortib bormoqda. Masalan, so'raganlarimizning 82% "Har bir kishi tibbiy bilimga ega bo'lishi kerak" deb hisoblaydi. Shunisi e'tiborga molikki, o'rganilgan guruxdagilarning 87,7% da birinchi farzandlari qolgan keyingilariga nisbatan ko'proq hastalangan. Demak, yosh ona bolasini parvarish etish malakasiga, tajribasiga ega bo'lmaganidan tez-tez kasal qilib qo'yadi. Aynan o'shalar tibbiy savodxonlikka muxtojdir.

Albatta, sog'lom turmush tarzi tushunchasi har bir insonda o'ziga hos tarzda shakllanar ekan. Respondentlarga "Sog'lom turmush tarzini qanday tushunasiz?" deb savol bilan murojaat qilinganda, ko'pchilik, Ya'ni so'ralganlarning salkam

41%i uni “atrof-turmush tarzini tozaligi” bilan, 37,3%i “to’g’ri, to’yimli ovqatlanish” bilan, qolganlash – “o’z vaqtida uxlash”, “sport bilan shug’ullanish” (28,4%) “chekmaslik, ichmaslik” kabilar bilan bog’lashdi.

Oiladagi ma’naviy sog’lom muhitni ham ota, ham onalik bog’liq. Bola tarbiyasida ota va onaning birga va har birining o’ziga xos alohida o’rni mavjud. Shu tufayli biz o’rgangan oilalarda bola tarbiyasida ota-onalarning o’rnini aniqlash maqsadida “Oilada farzandlar tarbiyasi bilan kim ko’proq shug’ullanadi” degan savolga javob axtardik. Olingan ma’lumotlar taxlili quyidagi jadvalda o’z aksini topdi.

Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov “Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma’naviy, ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog’lom bo’lishi uchun doimo qayg’urishimiz, kurashmog’imiz zarur” deb bejiz aytmaganlar. Farzandlari yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish uchun ota-ona ma’suliyatni his etishi lozim. Farzand bir novda, uni shamol qayerga bursa shu tomonga egiladi. Ota-ona shu novdaga himoyachi bo’lib uni to’g’ri unib-o’sishiga ko’mak berishi darkor.

Shu maqsadlardan kelib chaqib, joylarda ota-onalarning farzandiga nisbatan mas’uliyati qay darajada ekanligini o’rgandik. Tadqiqot davomida o’tkazilgan ma’rifiy uchrashuv va tadbirlar, sotsiologik so’rov natijalaridan shu narsa aniq bo’ldiki, hali ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajagi haqida zamon talabi darajasida tarbiyaviy mas’uliyatni his qilmayapdilar. Ota-onalar bilan o’tkazilgan suhbatlarda ular farzand tarbiyasiga kun davomida yetarli vaqt ajratmasligi, hali ham maktabdagi ota-onalar majlisiga to’laqonli qatnashmasligi, tarbiya masalalarida bir muncha muammo va uquvsizligi mavjudligini ko’rsatdi. Olingan empirik ma’lumotlarga ko’ra, ota-onalarning 38,7 foizi kuniga farzand tarbiyasi uchun 3 soat, 47,4 foizi 1-2 soat vaqt ajratishlari aniqlandi. Suhbatlardan shu narsa ayon bo’ldiki, shu qisqa vaqtda ham ta’lim-tarbiya, ahloq-odob mavzularga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Eng achinarlisi shuki, ayrim ota-onalar (7,9%) kun davomida farzandi uchun atigi yarim soatgacha vaqt ajratar ekan. Ota-onalarning 6,0 foizi esa farzand tarbiyasiga umuman e’tibor bermasligi aniqlandi.

Zero, oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barsha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarajon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ayniqsa bolalarni bekor qo'ymaslik, ularga vaqtni foydali o'tkazish va qadriga yetishni o'rganish tarbiyaning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot ota-onalarning 65,2 foizi bugungi kunda tarbiya masalasiga to'g'ri yondashishi, oila tarbiyasida kerakli usullardan foydalanishini ta'kidlagan bo'lsa, respondentlarning 18,6 foizi esa oila tarbiyasida bilimlari unchalik yetarli emasligini, farzandiga vaqti kelganda to'g'ri va kerakli maslahat va yo'nalishlarni bera olmasligini bildirgan. Ota-onalarning 16,2 foizi esa farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermagani ularning "Farzandimga to'g'ri tarbiya berish masalasini o'ylab ko'rmaganman" degan javoblaridan ham anglab olish qiyin emas. Demak, tadqiqotda qatnashgan ota-onalarning 34,8 foizi oilada eng muhim hisoblangan farzand tarbiyasi masalalarida zarur bo'lgan bilim va o'quvlari yetarlicha emas, degan xulosaga kelish mumkin. Ayniqsa, bu muammo Namangan viloyati ota-onalarida boshqa hududlarga nisbatan ko'proqni tashkil etdi. Ularning 46,6 foizi oila tarbiyasi masalalaridagi bilimlari bir muncha past va kezi kelganda yetishmasligini bildirdilar.

Tadqiqotdan oilngan natijalar shuni ko'rsatdiki, 41,1 foiz respondendlar maktabda o'qiydigan farzandining tarbiyasi ota-onalar zimmasida to'liq ekanligini bildirdilar. Ayniqsa, Namanganlik ota-onalarning 67,5 foizi bu fikrni ta'kidladilar. Toshkent shahrining 55,0 foiz ota-onalari esa maktabda o'qiydigan farzandining tarbiyasida oila, maktab mahalla hamkorligi zarurligi va faqat ular birgalikda komil insonni tarbiyalashlari mumkin degan fikrni bildirganlar. Shuni ham ta'kidlash joizki, bunday hamkorlik tadqiqod davomida Namangan viloyatida yetarli darajada emasligi tadqiqot davomida aniqlandi. Bu hududda atigi 16,3 foiz holatga oila, maktab, mahalla hamkorligi aks ettirilgan. Vaholanki, ta'lim tarbiya masalasi murakkab, keng ko'lamli masalalaridan biridir. Bunday ulkan, ma'suliyatli, sharaflil ishni oila, mahalla, maktab, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz fuqarolari

orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish “Oila – mahalla – maktab” konsepsiyaning asosiy maqsadi deb belgilangan.

Oiladagi bunday muhit farzand ruhiyatiga salbiy ta’sir etib, oiladan uzoqlashishga, hayotidagi ko’p holatlarni, quvonch va tashvishlarini oilasidan, ota-onasidan sir tutishga harakat qiladi, muammolarni hal qilish uchun begonalarga murojaat etishni afzal deb biladi. Bunday oilalardagi farzandlarda nobop yo’llarga kirib ketishi, jinoyatchilikka moyilligi borligi kuzatiladi.

Demak, mustaqillik tamoyillari va ahloqiy me’yorlar asosida rivojlanib borayotgan oilalarning eng muhim vazifalari deb hisoblangan – sog’lom turmush tarzi va ahloqiy munosabat madaniyatini, oila azolari o’rtasida ochiq ko’ngillik, hushfe’llik, rostgo’ylik, muruvvat, oriyat, pok-halollik, iboyu-latofat, iffatu-nazokat, kamtarlik, bosiqlik kabi hislatlarni kundalik ahloq me’yoriga aylantirish lozim. Allomalarimiz ta’kidlaganlaridek, inson oila, jamiyatda komillik va mukammal ahloqiy fazilatlarga faqat yahshi aql, yahshi xulq, yahshi bilim, yahshi so’z va yahshi niyatlar uyg’unlashishi orqali erishadi. Uni ahloqiy burch, ijtimoiy majburiyat, ichki e’tiqodga aylantirsak, fazilatlar hayot qoidasi, faoliyati va munosabatlar mezonini bo’lib xizmat qiladi. Chunki burchni anglash, vijdonni pok tutish, oriyatga amal qilish, qadr-qimmat, oila sha’ni-obro’sini saqlash kabi his-tuyg’ularni uyg’otadi.

Mustaqil yurtimizda keng quloch yozayotgan bolalar sportini rivojlantirish, oilaviy sportni milliy mentalitetimiz xususiyatlariga mos tarzda hayotga joriy etish, mustahkam oilada sog’lom turmush tarzini barqarorlashtirishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlarimiz islohotlarimiz strategiyasiga mos bo’lib, yurtimizda tinchlik, totuvlik hamda rivojlanishga, yosh oilalarning mustahkamligiga hissa bo’ladi. Bunda mamlakatimizda amalgam oshirilayotgan qator hayrli tadbirlar, jumladan nikoholdi tibbiy ko’rikdan kelin va kuyovlarni o’tkazish amaliyoti o’zining juda katta ijobiy samarasini berishi tabiiy.

1. Yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish, ularda orasta, shinam uy tutish, farzand tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlar to’g’risida tasavvurlarni shakllantirish uchun “Yoshlar sog’lom turmush tarzini

tanlaydi” shiori ostida o’tkaziladigan tadbirlar ta’sirchanligini oshirish, “Giyohvandlikka – qarshimiz, sog’lom turmush tarzi – tarafdorimiz!” mavzusidagi yoshlar festivalini yuqori saviyada tashkil etish va uning davomiyligini ta’minlash, “Eng namunali yosh oila”, “Yosh oilalarni ijtimoiy qo’llab quvvatlaydigan eng namunali mahalla” Respublika ko’rik-tanlovlarini tantanavor o’tkazish va OAV orqali targ’ib etish, ushbu tanlov va tadbirlarni har bir mahalla, tuman va shaharchalar kesimida ommaviy tarzda o’tkazilishiga barcha jamoatchilikni jalb etish lozim.

2. Yoshlarni o’zi qurgan yangi oilasi uchun g’urur va ma’suliyat hissinini, ota-onaga, keksa avlod vakillariga hurmat-ehtirom, xalqimizning boqiy ma’naviy qadriyatlariga hurmat ruhida, bola tarbiyalashga intilish tuyg’ulari kabi fazilatlarni shakllantirish maqsadida qator ma’naviy-ma’rifiy, targ’ibot-tashviqot ishlarini muntazam ravishda o’tkazilishiga erishish, unga yoshlarning o’zlarini faol jalb etish.

3. Yosh oila vakillarida zamonaviy turmush madaniyati ko’nikmalarini shakllantirish, zamonaviy oila yuritish, bola tarbiyasi ilmini egallashlarini tashkil etish uchun mahallalarda “Yosh oila maktabi”, “Ota-onalar universiteti”, “Yakshanba maktabi” kabi jamoatchilik markazlari va o’quv kurslari faoliyatini shakllantirish va takomillashtirish, ular faoliyatini “mahalla” jamg’armasi va xokimliklar tomonidan imkon qadar qo’llab quvvatlashlariga erishish.

4. Oilali talabalarni moddiy va ma’naviy qo’llab quvvatlash, ularni tibbiy va jismoniy, ruhiy salomatligini muhofaza qilish maqsadida barcha oliy o’quv yurtlari hududlaridagi oilaviy turar joylarda salomatlik markazlari, yoshlar klublarida psixolog xizmatlarini tashkil etish lozim, buning uchun barsha imkoniyatlarni yaratish, mablag’ zahirani shakllantirish.

5. O’rta maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida “Sog’lom oila sohibi” turkumida onalar va yoshlar uchun o’quv seminarlari qayerda tashkil etilgan bo’lsa, o’z samarasini bermoqda, shundan kelib chiqib, ularning ko’lamini yanada kengaytirish lozim.

6. Yosh oilasi bor xonadonlardagi individual mehnat faoliyati va fermerlikka asoslangan oilaviy biznesni rivojlantirishga ko'mak beruvchi davlat kafolatlarini takomillashtirish lozimki, bunda har bir xududning real imkoniyatlari, ishlab chiqarish va samarali biznesini o'rganish kerak. Bu ishni ham xokimliklar qoshidagi analitik-taxlil bo'limlari xotin-qizlar qo'mitalari, "Kamolot" YoIX bilan hamkorlikda amalgam oshirsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. Xonadonlarda o'tkaziladigan tekshiruvlarning samaradorligini oshirish, tibbiyot xodimlarining eng birinchi navbatda fertil yoshdagi yosh onalar salomatligini, qolaversa, homilador onalarning muntazam tibbiy ko'rikdan o'tishini mahalla maslahatchilari, oilaviy shifoxonalarning mutasaddilari nazoratiga kiritish, tug'ruq komplekslarining moddiy-texnik bazasi masalasini muntazam ravishda yaxshilashga etibor berish.

8. Nogiron farzandi bor bo'lgan oilalarni aniqlash, ularning ta'lim va tibbiy muassasalarga birlashtirilganligini nazoratda ushlash, kerak bo'lsa, ota-onalar uchun mahallalar qoshida pedagogik-korreksion malakalarni oshirish markazlarini tashkil etish, bunda jamoatchilik va mahalla xududidagi ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanish.

9. Davlat dasturida belgilangan har bir tuman va shahar markazlarida "Yosh oila markazlari"ni tashkil etish, unga hududdagi malakali pedagog, psixolog, sotsiolog, ijtimoiy hodimlarni jalb etish, ular uchun malakala oshirish kurslarini tashkil etgan holda, yosh oilaga zarur bo'lgan, ular ehtiyojlaridan kelib chiqadigan muammolarini hal etishga qaratilgan turli xizmatlarni va "Ishonch telefonlari" faoliyatini takomillashtirish.

10. Yosh oila vakillarining bo'sh vaqtlarini unumli rejalashtirish va o'tkazishga o'rgatish maqsadida tashkil etiladigan "Yoshlar istirohat bog'lari" kabi madaniy-oqartuv muassasalarini yoshlarning ijtimoiy fikridan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yish, ularning faoliyat dasturiga yoshlarning ma'naviy va mafkuraviy o'sishiga imkon beruvchi tadbirlarni kiritish.

Yoshlarni nikoh oldi tibbiy ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi

Oila Kodeksining 17-moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha tibbiy ko'rikdan o'tishlari belgilab qo'yildi. Bu modda kiritilishining mohiyati shundaki, imonli, insofli va yahshi niyatli inson uchun oila qurish, uning mustahkam poydevorda bo'lishiga qayg'urish qanchalik muhim va majburiy bo'lsa, yoki ota-onaga bo'lish ma'suliyati kuchli bo'lsa, o'zidan sog'lom zurriyot qoldirish, uni sog'-salomat katta qilib voyaga yetkazish, to'g'ri tarbiya berish shunchalik ma'suliyatli va nasli nuqtai nazaridan sog'-salomatligiga ishonch hosil qilish shunchalik zarurdir.

Tibbiy ko'rikdan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vujdoni oldida toza bo'lishi masalaning bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi ana shu nikohday muqaddas narsaga bo'lgan jiddiy va ma'suliyatli munosabatining namoyon bo'lishidir. Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oiladagilarning sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi muhim iqtisodiy hamda ma'naviy masaladir.

Milliy o'zligimiz va mahalliy urf-odatlarimiz shundayki, ikki yosh va ularning ota-onalari turmush qurishga ahd qilishsa, nisbatan qisqa fursatda hamma to'y taraddudiga tushadi. Yoshlar ham, ota-onalar ham faqat bir xil tashvish – eson omon yurt oldida ovozalar bilan to'y qilishga tayyorgarlik bilan band bo'ladilar. Shunday sharoitda qizning yoki yigitning salomtaligini tekshirib ko'rish yoki shunday taklifni u yoki bu quda tomonidan berilishiga hijolat bo'lish ham bor. Shuning uchun aslida yigit-qizlarning nikohdan avval bevosita pushtga, naslga ta'sir etuvchi hastaliklarga chalinmasligini tekshirishni millat manfaati nuqtai nazaridan yurtimizda davlat muassasalari o'z bo'yniga olgan. Masalan, yosh yigit va qiz nikohlarini rasmiy ravishda qayd etish istagida kamida bir oy avval FXDYo bo'limlariga ariza berish uchun kelganlarida ularning qo'lga tibbiy ko'rikdan o'tish taklifi beriladi va bu ishlarning hammasi bepuldir, ya'ni, davlat bu sarf-xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Ushbu harakatlarning qonuniyligi ta'minlash

maqsadida 2003-yilning 25-avgustida “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko’rikdan o’tkazish to’g’risidagi” Nizom haqida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365 sonli qarori qabul qilingan. Ushbu nizomga ko’ra, barcha fuqarolar nikohdan oldin tibbiy ko’rikdan o’tishi zarur. Bunda bo’lajak kelin-kuyovlar beshta asosiy hastalik – sil, teri-tanosil, giyohvandlik, OITS, ruhiy kasalliklar bo’yicha tekshiriladi. Sababi, bu beshta kasallik bevosita naslga ta’sir qiladi.

O’tkazilgan tadqiqotlar yurtdoshlarimizda “salomatlik” qadriyatiga munosabatlari ijobiy tomonga o’zgarayotganligini isbotlamoqda. Xususan, Respublika “Oila” ilmiy-amaliy hamda jamoatchilik fikrini o’rganish “Ijtimoiy fikr” Markazlarining tadqiqot natijalariga e’tibor beradigan bo’lsak, agar 2003-yilda aholining faqat 42,7 foizigina nikoholdi tibbiy ko’rikdan o’tishga ongli munosabatni ifoda etgan bo’lsa, 2005-yilda bunday ijobiy ko’rsatgich 84,4 foizni tashkil etdi.

Zero, olimlarning kuzatishlari va tadqiqotlar yurtdoshlarimizda, ayniqsa, yosh kelin-kuyovlarda xastaliklarni oldini olish yoki bemor bo’lib qolganda dori-darmonlarni istemol qilishga munosabati keskin o’zgarib borayotganini ko’rsatmoqda. Yurtdoshlarimiz bunda eng avvalo profilaktik tibbiyot, ya’ni xastalikni oldini olish uchun sog’lom turmush tarzi qonun-qoidalariga rioya etish, bunda sog’lom fikr va ruhiy quvvatdan foydalanish, bo’lgan bo’lmagan dorilarni iste’mol qilavermaslik ko’nikmalarini egallab borayotganligi tasdiqladi. Bu ham ma’lum ma’noda mamlakatimizda “Sog’lom ona – sog’lom bola” ijtimoiy harakatining, samarali targ’ibot-tashviqot ishlarining natijasidir. Qishloq hududlarida aholining toza ichimlik suvi, zarur sanitariya-gigiena shart-sharoitlarini yaratish, xususan, ota-bobolarimizdan qolgan har bir mahallada sharqona yuvinish maskanlari bo’lmish hammomlar qurilishiga e’tiborning ortayotganligi ham yurtdoshlarimiz psixologiyasining muhim o’zgarishlaridandir.

Yurtimiz ayollari va bolalar sport bilan faqat o’zining jismoniy quvvatini tiklash va bo’sh vaqtini maroqli o’tkazish uchun emas, balki u orqali sog’lom turmush tarzi keng targ’ibot qilish, ma’naviy va jismoniy kamolga intilish, turli

salbiy ta'sirlar va zararli odatlardan halos bo'lish, kuchli harakterni shakllantirish uchun shug'ullanayotganliklari har qanday tahsinga loyiqdir.

Bularning barchasi strategik maqsadimiz – milliy genofondni yaxshilash, barkamol va sog'lom avlod tarbiyasi borasida amalga oshirayotgan ishlarni yanada takomillashtirish orqali yosh oilalarning barqarorligiga erishishdan iboratdir.

Yosh oila va uning ehtiyojlari

O'zbekiston aholisining yarmidan ortig'ini yoshlar tashkil etgani bois, jami mavjud oilalarning muayyan qismini ham yosh oilalar tashkil etadi. Yurtimizda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish, mustaqil hayotga dadil kirib kelishlari uchun barcha zarur imkoniyatlarni yaratish, yosh oilaning xo'jalik yuritish funksiyasini amalda muvaffaqiyatli ado etishi uchun barqaror daromad manbalarini shakllantirish mexanizmlarini yaratish hamda ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash borasida ijobiy ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Joylardagi mahalliy davlat hokimiyatlari va xo'jalik boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlari oldiga respublikamizning har bir hududida yangi ish o'rinlarini ochish, yoshlarni kichik biznes va xususiy, oilaviy tadbirkorlikka faol jalb etish, ijtimoiy iqtisodiy muammolarni hal etishda yosh oilalarga amaliy yordam berish, ipoteka va iste'mol kreditlar ajratish yo'li bilan ularga uy-joy sotib olish yoki qurish, eski uylarini rekontruksiya qilish yoki ta'mirlash uchun aniq manzilli yordamlar tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarning asosiy qismini yosh oila tashkil etayotganligi, 2007-yilning 18-may sanasida muhtaram Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-3878-sonli Farmonning o'ta dolzarb tarixiy hujjat ekanligini ko'rsatdi. Farmonga muvofiq, yosh oilalarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishlari, boshlashlari, uy-joy qurish, ta'mirlash va sotib olish, uy xo'jaligini yo'lga qo'yishlari, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan zarur buyum va mebel mahsulotlarini harid qilishlari

uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli shartlar asosida birgina 2007-yilda 50 milliard so'm ipoteka, istemol va mikro kreditlar ajratildi. Belgilab qo'yildiki, kelgusi yillarda ham bu maqsadlarga 2007-yilgi hajmdan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha kredit mablag'lari ajratish vazifasi topshirildi.

Ayni paytda Farmonga ko'ra, yosh oilalarga katta soliq imtiyozlari ham berildi. Xususan, yosh oila azolari, ya'ni, er va xotinning yoshi 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tganlarga jismoniy shaxslar sifatida shaxsiy uy-joy yoki ko'p qavatli uyda xonadon sohibi bo'lish uchun olingan ipoteka kreditlari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan kredit summasi hamda xo'jalik subektlari – ish beruvchidan uy-joy sotib olish uchun olingan mablag' bo'yicha soliqqa tortiladigan daromadlariga kirmaydigan bo'ldi. Shu bilan birga shuni ta'kidlash lozimki, xo'jalik subektlariga daromad solig'i yoki yagona soliq to'lovini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani yosh oilalar toifasiga kiruvchi shaxslarga ipoteka krediti badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy sotib olishga tekin berilgan mablag'lar summasiga teng hajmda, ammo soliqqa tortiladigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda kamaytirish huquqi berildi.

Yosh oilalarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash uchun davlat tasarrufida bo'lgan vaqtincha foydalanilmayotgan yotoqxonalar, uylar va ko'p xonali uylarda bo'sh turgan xonalar negizida oilaviy yotoqxonalar tashkil etilib, bu bo'sh uy-joylar yosh oila azolariga imtiyozli narxlarda ijaraga beriladigan bo'ldi.

Shu o'rinda yosh oila va uning xususiyatlariga to'xtalib o'tish joiz. Ilmiy nuqtai nazardan taxlil etiganda, **yosh oila** – bu jamiyatda mavjud bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy gurux bo'lib, o'z navbatida u davlat va jamiyatning istiqbolli rivoji va mafkuraviy holatiga muhim rol o'ynaydi. Yosh oilaning o'ziga xosligi va kattalar oilasidan farqi shundaki, u mustaqil hayotni birgalikda boshlagan ikki yoshning qovushuvi bo'lgani sababli, ularning o'z orzu-havaslari, niyat-maqsadlariga erishish, farzand ko'rib, uni voyaga yetkazish yo'lidagi turli muammolari bo'ladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida, jamiyatda tub islohotlar amalga oshirilayotgan, yoshlar tarbiyasi va ularning farovon turmush qurishi davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilgan bir sharoitda yosh oilalarning manfaatlarini himoya qilish o'ta muhim va dolzarb masaladir.

Shu o'rinda "yosh oila", "erta nikoh" tushunchalariga aniqlik kiritish darkor. Fanda nikohning quyidagi turlari farqlanadi:

0 dan 4 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan – erta (navqiron) nikoh;

5 yildan 9 yilgacha bo'lgan nikoh – yosh nikoh yoki yosh oila;

10 yildan 19 yilgacha bo'lgan davrdagi – o'rta yoshli nikoh;

20 yildan ziyod vaqt birga bo'lganlar nikohi kattalar nikohi yoki ota-onalar oilasi deb yuritiladi.

Nima uchun aynan yosh oilaga tashqaridan madad kerak, degan savol o'rinli bo'lib, bunda aynan shu davrda yoshlar hayotiga aloqador tipik muammolarga duch kelishlari bilan izohlanadi, deb e'tirof etdik. Bu qanday muammo? Avvalo, yosh oila hayotning dastlabki yillaridayoq, farzand tug'ilishi va uni tarbiyalash bilan bog'liq qator masalalarni mustaqil hal qilishga qiynaladi. Ya'ni, ikki kishilik kichik guruhga yangi "mehmon"ning qo'shilishi nafaqat moddiy, balki ko'plab ma'naviy-ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ho'sh, hozirgi zamonaviy yoshlar bu kabi muammolarni hal qilishga tayyormi, qabilida qo'yilgan savol esa O'zbekistonda nafaqat ikki yoshni, balki ularning ota-onalaridan tashqari, mahallakuyni, davlatni qiziqtiradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qolaversa, xalq orasida "Bitta bolaga etti qo'ni-qo'shni ota-ona" maqoli ham shior sifatida yurtimizda jamiyatning muhim masalasi sifatida o'rtaga tashlangani bejiz emas.

Shu bois ham o'zbek oilalarida yosh kelin-kuyovni imkon boricha alohida ajratmay, kattalar – qaynona va qaynotalar yonida bo'lishidan ko'pshilik manfaaddordir. Albatta, nikoh yoshi kattaroq bo'lgan, mustaqil ravishda ta'lim olgan, mustaqil mutaxassis bo'lib ulgurgan ayrim yoshlar oilaviy hayotning boshidayoq alohida mustaqil yashashga – nuklear tipli oilada bo'lishni istaydilar. Xattoki, shunday oila sohiblari farzand ko'rganlarida ham agar ularning ota-onalari hayot bo'lsa, albatta, yoshlardan habar olish, tug'ruq uyidan chiqqan yosh onani g'amxo'rlik bilan qurshab olishni kattalar o'zlarining burchlari, deb hisoblashadi.

Eskidan qolgan udumga ko'ra ham yosh onaning "Chillasi chiqquncha", ya'ni, chaqaloq 40 kunlik bo'lguncha qizning onasi unga g'amxo'rlik ko'rsatishi, xoh o'z uyida, xoh kuyovning uyida ularga ko'mak berishi odatiy hisoblanadi. Bunday insonparvarlikning o'ziga yarasha ijobiy tomonlari bor.

Birinchidan, yosh ona "beli-boshini" ko'tarib olib, chilla davrida darmonga kirib oladi, bunda u o'z onasidan uyalmay, o'z xohish-istagi yoki boshdan kechirayotgan ayrim qiyinchiliklarni ochiq aytishi mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, qizning onasi o'z tajribasi va uyidagi taomillarga ko'ra, kelinchakka foydali, to'yimli ozuqalar pishirib berib, tiklanish jarayoniga yordam beradi.

Uchinchidan, ona o'z farzandiga chaqaloq bolani parvarishlash borasidagi tajribasini ochiq aytib, unga ona bo'lish mahoratini sidqidildan o'rgatadi.

Lekin hamma oilada ham bu kabi tajriba mumkin bo'lmaydi. Ayrim qaynonalar o'z orzu-havaslaridan kelib chiqib, kelinchakni tug'ruqxonadan chiqqan zahoti o'z parvarishiga olishadi. Buning ham qator ijobiy tomonlari mavjud. O'z xayrixoxligi va madadi bilan qaynona kelinchakning yangi oila muhitiga moslashuvini yanada mustaxkamlaydi. Qolaversa, farzand tug'ilishidan avvalgi homiladorlik davrida yosh ayolga yurish-turish, yeb-ichish kabi masalalarda ham oqilona maslahatlar bergan qaynona endi o'g'lining zurriyodini parvarishlash malakalarini, maslahatlarini beradi. Farzand tug'ilgach, uning tug'ruqxonadan chiqishidan tortib, toki bolalar bog'chasiga borguncha bo'lgan davrida tarbiyalash, bu davrdagi ayrim harajatlarni ham kattalar o'z bo'yniga oladi.

Bo'linmagan, ko'p bo'g'inli oilada ota-onalardan tashqari ovsinlar, qaynegachilar ham turli masalalarda yosh onaga madadkor bo'lishadi. Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'aloni" asari asosida yozgan senariy ham ana shunday oilalarning yaqqol misolidir. Ko'pchilikning qo'llab-quvvatlovidan juda o'rinli foydalanadigan kelinlar yo'q emas. Albatta, bunday holat ba'zan ichki oilaviy o'zaro munosabatlarda muayyan qiyinchiliklarni, tarangliklarni, qaynona-kelin, ovsinlar, aka-ukalar va ularning farzandlari o'rtasida ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarni ham keltirib chiqarishi tabiiy. Zamonaviy o'zbek yosh oilasi nikoh

yoshining tobora kattalashib borayotganligidan mustaqil alohida yashash sharoiti bo'lishini istaydi, shu ma'noda Prezidentimizning 2007-yil 18-may Farmonlari yosh oilaning o'z muammolarini o'zi hal qilishiga imkon berayotgan sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Chunki aslida har qanday oila muayyan muddatdan so'ng albatta alohida yashab o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila olishi, ota-onalar oilasida noyob, ijobiy tajribani qaytargan holda farzandlar tarbiyasi bilan o'zi shug'ullanishi maqsadga muvofiqdir.

Yosh oila boshiga tushadigan muammoli holatlardan yana biri – bu vaqt taqchilligidir. Zero, yoshlar aynan kuchga to'lgan, bilim va malakalarini oshirishga chanqoq paytida ro'zg'or bilan bog'liq masalalarni hal qilishga ham majbur bo'lishadi.

O'z ustida ishlash uchun eng maqbul bu davrda oila yumushlarini hal qilish zarurati bo'sh vaqtning deyarli yo'qligi, uning taqchilligini keltirib chiqaradi. Buning ustiga aynan yoshlik paytida yoshlar o'ynab kulgisi, do'stlar davrasida ko'proq bo'lish, kino-teatr kabi madaniyat o'choqlariga borishni ham xoxlashadi. Bularning bari yosh oilada vaqt taqchilligini keltirib chiqaradi. Bu masalani muvaffaqiyatli yecha olgan oila a'zolari salomatliklariga ham zarar yetkazmay, barcha yumushlariga ulgurishi mumkin, lekin buning aksi – ularda ruhiy tanglikni keltirib chiqarishi, yoshlar salga jizzakilik qilib janjallashib qolishlari ham mumkin. Shuning uchun vaqtdan oqilona foydalanish borasida ham yoshlar muayyan to'g'ri tasavvurlarga ega bo'lishlari oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Yoshlar uchun turli madaniy-oqartuv maskanlari, jumladan, “Yoshlar istirohat bog'lari”ning barcha hududlarda tashkil etilishi, tabiiy, yosh oila vakillarida vaqtdan unumli foydalanish, vaqt taqchilligining oldini olib, nima bo'lganda ham mehr-muhabbatli, samimiyat muhitida birgalikda vaqt o'tkazish tajribasiga asos bo'ladi.

Yuqoridagidan kelib chiqadigan navbatdagi muammo – bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlash bilan bog'liq. Albatta, yosh oila ham vaqt byudjetiga, bo'sh vaqtga ega. Uni oqilona tashkil etish, shanba, yakshanba, bayram, xayit kunlari uni to'g'ri tashkil etish, ota-onalar, qarindosh urug'lar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil

etish oila mustaxkamligida katta rol o'ynaydi. Masalan, har kuni ertalabki badan tarbiyaning, sport bilan shug'ullanishning yo'lga qo'yilganligi, bolalarni vaqti-vaqti bilan istiroxat va hayvonot bog'lariga olib borishlar, tabiat qo'yniga sayohatlarning bo'lib turishi, oila a'zolarining tavallud kunlarini nishonlash, kekxa ota-onalarni, agar ular olamdan o'tgan bo'lsa, ularning qabrlarini ziyorat qilish, televideniye, radio orqali beriladigan ma'qul materiallarni oila davrasida tomosha qilib, eshitib, muhokama etish, gazeta, jurnallar, badiiy kitoblarni mutoala qilish kabilar oilani nafaqat mustaxkamlaydi, balki yoshlarning ma'naviy saviyasini oshirib, oiladagi mafkuraviy muhitning maqbulligini ta'minlaydi, bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, oila salomatligini kafolatlaydi.

Global rivojlanish davrida yoshlar muammolarining ijobiy hal etilishida joylarda tashkil etilayotgan "Ishonch telefonlari", "Krizis markazlari", "Psixolog maslahatlari" shahobchalarining roli katta. Ayniqsa, "Yoshlar yili" davlat dasturida nazarda tutilgan "Yosh oila markazlari" ham aynan yosh oila vakillarining farzandlari bilan maroqli vaqt o'tkazish, o'zlarini o'ylantirayotgan turli masalalar yuzasidan professional maslahatlar olish, axborot xizmatlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Ularga murojaat qilish va mutaxassislar yordamidan oqilona foydalana olishni ota-onalar, jamoatchi faollar, mahalla maslahatchilari yoshlarni o'rgatishlari kerak.

Yosh oila boshdan kechiradigan qiyinchiliklardan yana biri – bu moddiy yetishmovchilikdir. Yosh oila a'zolari shuni doimo esda tutishlari lozimki, har qanday oila mustaqil oila bo'lib, oyoqqa mustaqil ravishda turishga moddiy, iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Bu bir tomondan, yoshlar ehtiyojlarining uzluksiz ravishda ortib borishi, yoshlik davrini mukammal o'tkazishga intilishlari bilan tushuntirilsa, ("bo'lgan sari bo'lay deydi" naqlida) ikkinchi tomondan, professional kamolotga hali yetmaganliklari, ayrim yoshlarning, masalan, er yoki xotinning, ba'zan ikkalasining ham ota-onaga tobeligi, hali ta'lim muassasasidagi ma'lumotiga ham to'la erishmaganligi bilan izohlanadi. "Oila" markazi o'tkazgan tadqiqodlarga ko'ra, yosh oila vakillarining salkam 10-foizi – bu talabalardir. Bunday oila tabiiy, o'zgalardan tobe bo'lgani

sababli, doimiy iqtisodiy taqchillikni sezib yashaydi. Shu bois ham oilani birinchi navbatda yigit, qolaversa, qiz ham ma'lum ma'lumotga yoki aniq professional kasb-hunarga ega bo'lgandan so'nggina oila qurishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunday holatda ham oliy ma'lumot egasi bo'lgan yoshlar ham dastlabki maoshlarining barcha orzu havaslariga yetmasligini anglab yashashga majburlirlar. Shu bois ham o'zbekchilikda ota-ona qudalar ikkala tomon ham yoshlarga qo'lidan kelganicha, sarpo-suruq, to'y sovg'alari sifatida ro'zg'orni bekamu-ko'st qilishga harakat qilishadi, xattoki, bu sovg'alarni "hasham"ga ham aylantirib yuborishadi. Bu noto'g'ri amaldir, chunki qancha sarf-harajat bo'lishiga qaramay, ular yoshlar tomonidan unchalik qadrlanmaydi. Birgalikda halol mehnat bilan jamg'arilgan mablag' yoki harid qilingan mollar qadrli va e'zozliroq bo'lib, ular oilani mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Kattalar, ya'ni kelin va kuyovning ota-onasi tortiq qilgan narsalarga qaramay, yosh oila muayyan doimiy harajat mavjudligini unutmaslik kerak. Xarajatlarning miqdori va ko'lam, oilaning ehtiyojlari, jismoniy salohiyati va salomatligi darajasiga bog'liqdir.

Xulosa

Inson jamiyatda yashar ekan, uning yaqin kishilari, avvalo, oila a'zolari bilan o'rnatadigan munosabatlari ahamiyatli bo'lib qolaveradi. Amerikalik tadqiqodchilar Uorr va Peynlar yoshlardan "O'tgan kuningizdagi siz uchun eng maroqli daqiqalar nima bilan bog'liq bo'ldi?" deb so'rashganda, eng ko'p qaytarilgan javob "Oilam bilan" degan javob bo'ldi. Darhaqiqat, qayerda ishlamaylik yoki o'qimaylik, qanday hududda yoki manzilda yashamaylik, daromad manbaimizni tashkil etuvchi hunarimiz nima bo'lmasin, biz uchun oila va oilamiz bilan bog'liq bo'lgan yaqinlarimiz eng aziz va mukarram bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham oila muhitining salomatligimiz, jamiyatda o'zimizni his etishimiz, baxtli yoki baxtsiz tasavvur qilishimiz uchun ahamiyati ortib boraveradi.

Mamlakatimizda "sihat-salomatlik yili" deb e'lon qilingan 2005-yilda Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi o'tkazgan tadqiqotda yoshlarda "Siz uchun eng muhim qadriyat nima?" deb, qadriyatlar qatorini tavsiya etganimizda "Oila" qadriyati birinchi o'rinda reyting javoblari sifatida e'tirof etildi. "Oilada siz avvalo nimalarni qadrlaysiz?" deb berilgan savolga esa birinchi navbatda "salomatlik", keyingi o'rinda esa "farzandlarning borligi" javoblari berildi. Shu kabi javoblar yurtimizdagi yoshlarning sog'lom ma'naviyat sohiblari ekanligidan darak berishi bilan birgalikda, ularning ongida va shuurida sog'lom qadriyatlar bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarning borligidan, bu ularning istiqboli ishonchli ekanligidan darak beradi.

Shunday e'tiqodlar egasi bo'lmish farzandlarimizning oilasi mustahkam, baxti butun bo'lishi uchun amalgam oshirilayotgan islohotlar va hayrli ishlar O'zbekiston atalmish muqaddas zaminning ertasi porloq, kelajagi buyuk bo'lishiga ishoradir. Prezidentimiz iboralari bilan aytganda, "Oila sog'lom ekan- jamiyat mustaxkam, jamiyat mustaxkam ekan – mamlakat barqarordir".

Diqqatga molik yana bir muhim jihat – bu oilaning iqtisodiy maqomini kuchaytirish orqali xalq farovonligini yuksaltirish borasidagi ishlarimizdir. Zero, oxirgi yillarda erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlarning kasb-hunar egallashlariga

berilayotgan e'tibor, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilayotgan real shart-sharoitlar, xotin-qizlarning ijtimoiy foydali **mehnatda bandligi** masalasiga ham alohida ahamiyat berilmoqdaki, bu boradagi qonunchiligimizning mukammalligi dunyo ekspertlarining e'tirofiga sazovar bo'lmoqda. Chunki bu imkoniyatlar asosiy qonunda, Mehnat Kodeksida, Prezidentimiz Farmonlari va boshqa normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib yurtimiz O'zbekistonda Konstitutsiya belgilab bergan asosiy qoidalar bois, yosh oilalarni mustahkamlash, ularda tarbiyalanayotgan farzandlarni har tomonlama barkamol bo'lib yetishlari uchun shart-sharoitlar tobora yaxshilanib bormoqda. Bu pirovardda yurtimizda ustuvor bo'lgan asosiy tamoyil "Hamma narsa inson uchun – insonning manfaati uchun" degan ulug'vor g'oyaning tantanasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I. A. Yuksk ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin. T., O'zbekiston, 1994.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 1993.
4. Aristotel. Nikomaxova etika // Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax. M., Mysl, 1983.
5. Guseynov A., Irrits G. Sistemizatsiya antichnoy etiki // Kratkaya istoriya etiki. M., Mysl, 1987. S. 93-148.
6. Dao de tszin // Dao M. Xar'kov, «Eksmo-press» - «Folio», 2000.
7. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., O'qituvchi, 1997.
8. Ivanov V. Istoriya etiki Drevnego mira. L., Izd-vo LGU, 1980.
9. Indiyaskaya filosofiya. T.1. SPb., «Stiks», 1994.
10. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson. T., Yozuvchi, 1996.
11. Komilov N. Tasavvuf. 2- kitob. T., o'.o'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda «O'zbekiston» nashriyotlari, 1999.
12. Mahmudov R. Degonimni ulusqa marg'ub et... T., O'zbekiston, 1992.
13. Olim S. Naqshband va Navoiy. T., O'qituvchi, 1996.
14. Platon. Xor haqida masal. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1996, 1-son.
15. Rizo SH. Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikka. «Tafakkur» jurnali, 1995, 1-son.
16. Tolstoy L. Iqronoma. O. SHarafiddinov tarjimasi. T., Yozuvchi, 2000.
17. Forobiy. Fozil shahar odamlari. T., Meros. 1990.
18. Sher A. Axloqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., «O'AJBNT» Markazi, 2000.
19. Sher A. Ibrat ko'zi. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1996, 7-8, 9-10-sonlar.